**XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 28-iyun VI-106-69-7-92-K/24 Oqdaryo tumani

**Xalq deputatlari tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-99-179-7-92-K/23-sonli “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli ko‘rsatma xatlari ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi,

**Q A R O R Q I L A D I :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Tumandagi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish va suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni davom ettirish hamda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-99-179-7-92-K/23-sonli “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 1-2-ilovalari, ya’ni mahalliy budjet daromadlar (suv solig‘ining prognoz qilingan so‘mmasi) va xarajatlari (suv yetkazib berish xizmati DM saqlash xarajatlari) 40 foizga teng miqdorlarda oshirilsin.
3. Quyidagilar:

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-99-179-7-92-K/23-sonli “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 1-ilovasiga muvofiq;

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-99-179-7-92-K/23-sonli “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 2-ilovasiga, 2-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (M.Ergasheva) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (O.Shodmonov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

QUDRATOV SHERZOD ASATOVICH

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 28-iyundagi
VI-106-69-7-92-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**2024 yil uchun Oqdaryo tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari**

| T/R | Daromad turlari | Jami |
|---|---|---|
| | **JAMI** | **101 008 600,0** |
| 1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 6 414 000,0 |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 14 814 000,0 |
| 3 | Aksiz solig‘i, jami | 8 445 000,0 |
| | *shu jumladan:* | |
| | *- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i* | *8 445 000,0* |
| 4 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 5 920 000,0 |
| 5 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 14 457 000,0 |
| 6 | Aylanmadan olinadigan soliq | 8 300 000,0 |
| 7 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 12 400 000,0 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 18 640 000,0 |
| 9 | Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 1 020 000,0 |
| 10 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 7 000 000,0 |
| 11 | Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 400 000,0 |
| 12 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 120 000,0 |
| 13 | Yig‘imlar | 3 078 600,0 |

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 28-iyundagi
VI-106-69-7-92-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**2024 yil uchun Oqdaryo tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

| № | Ko‘rsatkichlar | miqdori |
|---|---|---|
| **Xarajatlar miqdori, Jami** | | **167 129 943,0** |
| 1 | Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi | **20 943 393,0** |
| 2 | Tibbiyot birlashmasi | **71 398 923,0** |
| 3 | Madaniyat bo‘limi | **7 314 085,0** |
| 4 | Yoshlar siyosati va sport bo‘limi | **7 655 827,0** |
| 5 | Qishloq xo‘jaligi bo‘limi | **3 371 875,0** |
| 6 | Irrigatsiya bo‘limi | **3 146 250,0** |
| 7 | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi | **1 406 524,0** |
| 8 | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh bo‘limi | **5 235 771,0** |
| 9 | Soliq inspeksiyasi | **4 587 533,0** |
| 10 | Hokimiyat | **42 069 762,0** |